

**KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
TOMONIDAN 2024-YIL DAVOMIDA AMALGA OSHIRILGAN
ISHLAR HISOBOTI**

I. Kambag'allik darajasi va mehnat bozoridagi holat

1. 2024 yilda kambag'allik darajasi **11 foizdan 8,9 foizga** (2,1 foizga) tushirildi. Xususan, kambag'al aholi soni **3,3 mln** kishini tashkil etib, 2023 yilga nisbatan **719 mingga** kamaytirildi.

Kambag'allik darajasining **pasayishi barcha hududlarda** qayd etildi. Xususan, **eng katta pasayish Buxoro (11,8%dan 8,7%ga), Samarqand (10,5%dan 7,5%ga), Namangan (10,4%dan 7,6%ga)** viloyatlari va **Qoraqalpog'iston Respublikasida (13,6%dan 10,8%ga)** kuzatildi.

2025 yilda **1,5 mln** aholini kambag'allikdan chiqarish orqali kambag'allik darajasini **6 foizgacha** tushirish rejalashtirildi.

2. 2025 yil 1 yanvar holatiga iqtisodiy faol aholi **15 066 ming** nafarni tashkil etib, ulardan **14 214 ming** nafari (94 foizi) iqtisodiyotning turli tarmoqlarida mehnat qilmoqda.

Hozirda respublika bo'yicha **836 ming** nafar **ishsiz** aholi mavjud (yil boshida **1 024 ming** nafar, **-187 ming**).

Mehnatga layoqatli aholi o'rtasida **ishsizlik darajasi** yil boshiga nisbatan **1,3 foiz** punktga yoki **6,8 foizdan 5,5 foizga** kamaydi.

II. Kambag'allikni qisqartirish va aholi daromadlarini oshirishda mahallabay ishlash

2024 yilda Davlat rahbarining joylarda kambag'allikni qisqartirish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, turmush sharoitlari va mahalla infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan **PQ-330-son, PQ-347-son** qarorlari hamda **PF-143-son** Farmoni qabul qilindi.

1. Respublika bo'yicha **eng og'ir** ahvoldagi **1 024 ta mahallalar** respublika darajasidagi rahbarlarga biriktirilib, ularni **infratuzilmasini yaxshilash dasturi** ishlab chiqildi. Jumladan:

- **305 mingta** xonadonning **tomorqa suvi** bilan ta'minlash (**1,2 trln.so'm**);
- **325 ming** xonadon uchun **elektr ta'minotini** yaxshilash (**793 mlrd.so'm**);
- **66 ming** xonadonni **internet** bilan ta'minlash (**25 mlrd.so'm**);
- **222 ming** xonadon uchun **ichki yo'llarni** yaxshilash (**1,2 trln.so'm**);
- **200 ta drenaj** o'rnatish (**23 mlrd.so'm**) bo'yicha dastur ishlab chiqildi.

Ushbu dastur ijrosi uchun jami **3,2 trln.so'm** mablag'lar yo'naltirilishi belgilandi.

Bu borasida eng og'ir ahvoldagi mahallalarda **tomorqani sug'orish tarmog'ini yaxshilash** bo'yicha joylarga chiqqan holda **o'rganishlar o'tkazildi**.

O'rganish natijalariga ko'ra ushbu mahallalarda qiymati **1 395 mlrd** so'mlik **938 ta quduq, 443 ta nasos stansiyalari** va **2,7 ming** kilometr **bosimli quvur** tortish, **lotok** o'rnatish, kanallarni **betonlashga** ehtiyoj aniqlandi.

2. Joylardagi tashkilotlarning **14 mingta** rahbarlarining har biriga **5 tadan eng og'ir ahvoldagi** kambag'al oilalarni biriktirish belgilandi (**reja 70 ming** oila).

Hozirgi kunda **729 ming** kambag'al oilalar bo'yicha so'rovnomalar o'tkazilib, ulardan **597,8 ming** nafari skoringdan o'tkazildi.

Skoringdan o'tgan oilalardan **340,2 mingtasi "Kambag'al oilalar reestri"**ga kiritilib, ulardan **320,7 mingtasi** bo'yicha ma'lumotlar **"Individual reja"** tuzish uchun kelib tushgan.

Hozirda ma'lumoti kelib tushgan oilalar uchun **1,5 mln** xizmatlardan iborat **240,7 mingta** individual rejalar ishlab chiqildi.

Ko'rsatiladigan xizmatlar: barqaror bandlik – **388,3 mingta**, ijtimoiy xizmat – **295,3 mingta**, tibbiy xizmat – **425,6 mingta**, ta'lim va kasbga o'qitish – **248,6 mingta**, yashash sharoitlari – **47,1 ming** va boshqalar – **101 mingta**.

3. 2024 yilda “Sayxunobod” tajribasi orqali **18 990 mlrd so'mlik 326,6 ming mikroloyihalar** ishga tushirilishi hisobiga **578,6 ming** yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

4. Bundan tashqari, **dehqonchilik** qilish uchun **61,4 ming gektar** ekin maydonlari ijara asosida ajratilib, **159 ming** nafar aholi daromad manbaiga ega bo'ldi.

5. “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish” dasturi doirasida **372,6 ming** loyihalarga **6 841 mlrd so'mlik kredit** mablag'lari ajratildi.

6. “Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida o'quv kurslarini tamomlagan va biznes rejalarini ishlab chiqib, sertifikat olgan **54,6 mingta** tadbirkorlardan **49,2 ming** nafariga (90 foiz) **4 845,4 mlrd so'm kredit mablag'lari** ajratildi.

7. Bundan tashqari, **67,7 ming** nafar ishsizlarga, ayniqsa, kambag'al oila a'zolarining tadbirkorlik, kasanachilik, hunarmandchilik faoliyatini rag'batlantirishga **355 mlrd so'm subsidiyalar** ajratildi.

Misol uchun, 55 611 nafar fuqarolarga 302,7 mlrd so'm subsidiyaga payvandlash apparati, non va xot-dog pishirish pechi, inkubator, sartaroshlik jihozlari, kompyuter jamlamasi, tikuvchilik mashinkasi, duradgorlik va boshqa mehnat qurollari xarid qilib berildi.

III. Aholi bandligiga ko'maklashish

1. Davlat rahbarining **PQ-7-son** qaroriga asosan 2024 yilda **5 million** aholining bandligiga ko'maklashish dasturi ishlab chiqildi.

Mazkur dasturga asosan, **xizmat ko'rsatish** sohasida **2,5 mln**, **qishloq xo'jaligi** yo'nalishida **2,1 mln**, **investitsiya loyihalarini** ishga tushirish hisobiga **246,9 ming** hamda **qurilish** sohasida **142,3 ming** nafar aholini daromadli mehnat bilan band qilish vazifasi belgilangan.

2024 yil mobaynida **5 265,3 ming** (rejaga nisbatan 105%) aholi daromadli ish bilan ta'minlandi. Xususan:

- xizmat ko'rsatish sohasida **2 566,5 ming** nafar (103%);
- qishloq xo'jaligi yo'nalishida **2 227,8 ming** nafar (106%);
- qurilish sohasida **180,3 ming** nafar (127%);
- investitsiya loyihalarini ishga tushirish orqali **290,6 ming** nafar (118%) aholi yuqori daromadli ish bilan ta'minlandi.

2. 31.12.2024 yil holatiga **132,8 ming** korxona va tashkilotlarda **353,6 mingta bo'sh (vakant) ish o'rinlari** mavjud.

Bo'sh ish o'rinlarining 286,7 mingtasi (81%) xususiy korxonalar va 66,9 mingtasi (19%) davlat tashkilotlari hisobiga to'g'ri keladi.

2024 yil davomida **445,9 ming** ishsizlar Bandlik organlari yo‘llanmasi orqali **doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi**.

Bundan tashqari, **80,5 ming** nafar ishsizlar haq to‘lanadigan bir martalik jamoat ishlariga jalb qilindi. Ularga jami **105,1 mlrd** so‘mlik ish haqlari to‘lab berildi.

Shu bilan birga, 2024 yilda o‘quv muassasalarini tamomlagan **754 ming** nafar bitiruvchilardan **417,5 ming** nafarining bandligiga ko‘maklashildi.

Jumladan, **229,3 ming** (55,7 foiz) nafar **maktab**, **74,3 ming** (50,3 foiz) nafar **prof.ta’lim** hamda **113,9 ming** (58,6 foiz) nafar **oliy ta’lim muassasalari** bitiruvchilarining bandligi ta’minlandi.

IV. Kasb-hunarga o‘qitish

Vazirlik tizimidagi **82 ta** (**65 ta kasbiy ko‘nikmalar markazi** va **13 ta filiali**, **4 ta JIEM qoshida**) o‘quv markazlari hamda **104 ta** nodavlat ta’lim tashkilotlari bilan hamkorlikda **91 ta** kasb-hunar yo‘nalishlari hamda **8 turdagi** xorijiy tillarga o‘qitish yo‘lga qo‘ygan.

Kasbiy ko‘nikmalar markazlarida, eng avvalo, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, bu yil qo‘shimcha tarzda, **12 ta** yangi kasblarga o‘qitish yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan yil davomida **234,3 ming** ishsizlar kasb-hunarga va tadbirkorlik ko‘nikmalariga o‘qishga jalb etilib, yillik reja (**200 ming**) **117 foizga**, o‘tgan yilga (**144,3 ming**) nisbatan esa **1,6 baravarga** oshirildi.

Kasbga o‘qitish kurslarini tamomlagan **118,8 ming** nafar bitiruvchilardan **107,1 ming** (90,1 foiz) nafarining bandligi ta’minlandi. Xususan, **65 ming** nafari doimiy ish o‘rinlariga joylashtirildi, **40,8 ming** nafari o‘zini o‘zi band qildi, **1,2 ming** nafari yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilindi.

V. Davlat mehnat inspeksiyasi

2.1. Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan o‘tkazilgan nazorat tadbirlari tahlili

Davlat mehnat inspeksiyasiga 2024-yil davomida mehnat va mehnatni muhofaza qilish qonunchiligiga rioya etilishi yuzasidan 18 807 ta nazorat tadbirlari o‘tkazilib, ushbu nazorat tadbirlari davomida 49 488 ta qonun buzilish holatlari aniqlangan, ushbu qonun buzilishlarni bartaraf etish bo‘yicha bajarilishi majburiy bo‘lgan 10 556 ta yozma ko‘rsatmalar va 435 ta taqdimnomalar kiritilgan, shuningdek 8 281 nafar mansabdor shaxslarga nisbatan ma’muriy jarimalar qo‘llanilgan.

O‘tkazilgan nazorat tadbirlari davomida 31 ming 839 ta mehnat huquqlari buzilishi bilan bog‘liq qonun buzilishlar aniqlangan bo‘lib, shundan 5 ming 844 ta holatda ta’tillar berish tartibiga rioya etmaslik, 4 ming 542 ta holatda ish haqini belgilangan muddatlarda to‘lab bermaslik, 2 ming 022 ta holatda mehnat shartnoma tuzmaslik, 672 ta norasmiy ravishda xodimlar mehnatidan foydalanish, 2 ming 172 ta holatda aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish, 776 ta noqonuniy ishdan bo‘shatish, 1 ming 478 ta mehnat daftarchalarini yuritish tartibini buzish holatlari hamda boshqa turdagi qonun buzilish holatlari aniqlangan.

Aniqlangan qonun buzilishlarning 17 ming 649 tasi mehnatni muhofaza qilish va mehnat sharoitlari yaratilmaganlik qonun buzilishlari bilan bog‘liq. Jumladan, 3 ming 047 ta holatda xodimlar mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha yo‘l yo‘riqlaridan o‘tkazilmasdan ishlashiga ruxsat berilgan, 2 ming 198 ta holatda korxonada mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha xodimlarni o‘qitish va bilimlarini tekshirish tashkil etilmagan, 1 194 ta holatda xodimlar maxsus kiyim bosh va himoya vositalari bilan ta’minlanmagan, 1 ming 466 ta


holatda mehnatni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar va rejalar ishlab chiqilmagan, 844 ta korxonalarda xodimlar tibbiy ko'rikdan o'tkazilmagan, 991 ta tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish xizmati tashkil etilmagan, ish o'rinlarida mehnat sharoitlari bo'yicha attestasiyadan o'tkazilishi majburiy bo'lgan 551 ta korxonalar ushbu attestasiyani o'tkazmagan.

Aniqlangan qonun buzilish holatlari bartaraf etilib, xodimlarning buzilgan mehnat huquqlari tiklangan hamda xavfsiz mehnat sharoitlari yaratilishiga erishilgan. Xodimlarni buzilgan mehnat huquqlarini tiklash borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

2024-yil davomida 717 nafar xodimlar noqonuniy ishdan bo'shatilganligi sababli ishga tiklandi, shundan 341 nafari ayollarni tashkil etadi;

hisobot davrida 9 ming 970 nafar fuqarolarni jami 75 mlrd. so'mdan ortiq miqdordagi ish haqlari undirib berildi;

Respublika bo'yicha 2024 yil davomida 736 ta sodir bo'lgan baxtsiz hodisalar oqibatida 992 nafar xodim jabrlanib, shundan 101 nafar xodim halok bo'lgan, 675 nafari og'ir va 29 nafari yengil tan jarohati olgan.



Baxtsiz hodisalar tufayli xodimlar yoki ularning oila a'zolariga 3,7 mlrd. so'mdan ortiq miqdordagi tovon pullarini undirish yuzasidan sudlarga da'vo arizalar kiritilib, shundan 96 nafar fuqoraga 2 mlrd. 282 mln. so'm undirib berildi va qolganlari bo'yicha jarayon davom ettirilmoqda;

Tahlillarga ko'ra, baxtsiz xodisalarning sabablari turlicha bo'lishiga qaramasdan asosiy sabablar sifatida ish beruvchilar tomonidan xodimlarga sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitlari yaratib berilmaganligi, mehnatni muhofaza qilish sohasidagi qonunchilik xujjatlariga rioya etmaslik, xodimlarni shaxsiy himoya vositalari bilan taminlamaslik, xodimlar o'qitilib bilimlari sinalmasdan ishlarga jalb qilinishi va ayrim holatlarda xodimlarning mehnat xavfsizligi talablariga e'tiborsiz qarashlari sabab bo'lmoqda.

2024-yil davomida jami 626 ta korxona va tashkilotlarda 45 422 ta ish o'rinlarida mehnat sharoitlari va asbob-uskunalarining jarohatlash xavfliligi yuzasidan attestasiya hujjatlari davlat ekspertizasidan o'tkazildi.

481 ta tashkilotda 21 154 ta ish o'rinlarida o'tkazilgan attestasiya xujjatlarini dastlabki baholashdan o'tkazish jarayonida kamchiliklar aniqlanib, mehnat sharoitlari yuzasidan attestasiyadan o'tkazish sifati yuzasidan muhokama o'tkazildi hamda aniqlangan muammo

va kamchiliklarni bartaraf etish uchun professional ishtirokchilarga attestatsiya xujjatlari qaytarildi.

O'tgan davr maboynida 27 166 ta murojaatlar kelib tushgan, shundan, 16 181 ta murojaat qanoatlantirilgan, 8 948 ta murojaatlar yuzasidan tushuntirishlar berilgan, mehnat huquqlari tiklangan fuqarolar soni 12 472 nafarni tashkil etdi.

Majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ham doimiy ravishda monitoringlar o'tkazilmoqda. 2024 yil davomida 29 ta holatda majburiy mehnat holatlari aniqlanib, 565 nafar majburiy mehnatga jalb qilingan fuqarolarning mehnat huquqlari tiklandi, 29 nafar aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan ma'muriy jarimalar qo'llanildi hamda 3 ta holatlar tegishli hujjatlar sud va prokuratura organlariga o'tkazildi.

2024-yil davomida Davlat mehnat inspeksiyasi tomonidan jami 38 118 ta huquqiy targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borilib, shundan televideniya va radio orqali ta, internet tarmog'i orqali 1 516 ta, gazeta va jurnallarda 346 ta chiqishlar qilingan hamda o'tkazilgan seminar, konferensiya va davra suhbatlari soni 6 935 tani, "ochiq eshiklar" soni 983 tani va ishonch telefon orqali berilgan tushuntirishlar soni 2 058 tani hamda paxta mavsumida o'tkazilgan seminar targ'ibot ishlari soni 25 857 tani tashkil etgan.

2024-yil davomida Inspeksiya mutaxassislari tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar natijasida barcha sohalarda majburiy mehnatga yo'l qo'ygan 34 nafar

mansabdor shaxsga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga asosan 656,5 mln so'm miqdorida ma'muriy jarimalar qo'llanildi.

Ma'lumot uchun:

Majburiy mehnatga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarning:

11 nafari xalq ta'limi muassasalari rahbarlari;


5 nafari sog'liqni saqlash muassasalari rahbarlari;


2 nafari energetika sohasida;

3 nafari obodonlashtirish boshqarmalari rahbarlari;

2 nafari tuman hokimlari;

6 nafari boshqa sohadagi rahbarlar.






2.2. Paxta monitoringi

1. 2024-yil paxta yig'im terim mavsumi davomida fuqarolar tomonidan kelib tushadigan murojaatlarni tezkorlik bilan ko'rib chiqish hamda majburiy mehnatni bartaraf etish maqsadida vazirlikning "1282" raqamli Ishonch telefoni hamda "Munosibmehnat.uz" telegram messendjeri 24/7 rejimda ishlash tizimi yo'lga qo'yildi.

Joriy yil paxta mavsumida jami 455 ta mehnat huquqlari buzilishiga oid murojaatlar kelib tushdi. Shundan, 169 tasi (37%) ishonch telefoni orqali, 33 ta (7%) ijtimoiy tarmoqlar orqali, 253 ta (56%) telegram bot orqali kelib tushgan.



bot



Shundan:

- 30 tasi (7%) majburiy mehnatga jalb qilinganligi bo'yicha,

- 363 tasi (80%) terim pullari o'z vaqtida berilmayotganligi va 1 kg paxta narxini aniqlash bo'yicha,

- 62 ta (13%) munosib mehnat sharoitlari yaratilmaganligi.

Ushbu murojaatlarning 455 tasi (100%) belgilangan tartibda o'rganib chiqildi.

Murojaatlarning 144 tasi qanoatlantirildi, 215 tasi bo'yicha terimchilar va fermer xo'jaliklariga tushuntirishlar berildi, 57 ta murojaatdagi vajlar o'z tasdig'ini topmadi va 39 ta murojaat bo'yicha qonunbuzilish holatlari aniqlandi.

Shundan, 136 tasi terim pullari o'z vaqtida berilmaganligi holati aniqlanib, ushbu holat yuzasidan ish beruvchiga nisbatan yozma ko'rsatma kiritildi va terim pullari to'liq undirib berildi.

6 ta holatda majburiy mehnat holati aniqlanib, mansabdor shaxslarga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 51-moddasi 1-qismiga asosan bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravari miqdorida ma'muriy jarimalar qo'llanildi.

1 ta holatda esa xodimlarning paxta terimi uchun oylik ish haqidan ushlab qolingani. Ushbu holat bo'yicha mansabdor shaxsga nisbatan MJTKning 49-moddasi 1-qismiga asosan ma'muriy jarima qo'llanildi.

2. Paxta yig'im terim mavsumida monitoring ishlariga 300 nafardan ortiq mehnat inspektorlari jalb etilgan. Ular tomonidan, Respublika bo'yicha 25 505 taga yaqin tashkilot, fermer xo'jaliklari hamda paxta dalalarida majburiy mehnatga yo'l qo'ymaslik hamda mehnat sharoitlarining yaratilishi yuzasidan monitoringlarni olib borildi.

Monitoring davomida 520 ta qonunbuzilish holatlari aniqlandi. Aniqlangan qonunbuzilishlarning 238 tasi (46%) mehnat sharoitlari yaratilmaganligi, 102 tasi (20%) mehnat shartnomasi mavjud emasligi, 180 tasi (34%) terim pullarini kechiktirib berilishi holatlari aniqlangan.

Ushbu holatlar yuzasidan 330 ta klaster va fermer xo'jaliklari rahbarlariga yozma ko'rsatmalar hamda 24 nafar mansabdor shaxsga nisbatan MJTKning 49-moddasi 1-qismiga asosan ma'muriy jarima qo'llanildi.

Shuningdek, 3 ta holatda ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib huquqiy baho berish uchun prokuratura organlariga yuborildi.

Mehnat munosabatlarini tartibga solishda Ijtimoiy mehnat masalalari bo'yicha Uch tomonlama komissiya tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Komissiya tomonidan paxta yig'im-terimini tashkil qilish bo'yicha "2024 yilda paxta hosilini yig'ib-terib olishni tashkil etish bo'yicha Tavsiyalar" tasdiqlandi.

Nizomda mavsumiy terimchilar bilan tuziladigan "Namunaviy shartnoma", ko'ngilli terimchilarni jalb qilish yuzasidan hujjat shakli hamda monitoring o'tkazish yuzasidan tartib va normalar tasdiqlandi. Bayonnomadagi tavsiyalar barcha hududlarga yetkazildi.

3. Respublikamizning barcha hududlaridagi aholi gavjum joylarda majburiy mehnatning oldini olish borasida, 512 dan ortiq "Munosib mehnat – muhofaza qilingan va


xavfsiz mehnat” va “Munosib mehnat – Inson qadrini ulug‘laydi” nomli bannerlar o‘rnatildi.

20 mingta flaerlar va bukletlar klaster va fermer xo‘jaliklari, mahalla fuqarolar yig‘inlari hamda ish beruvchilarga tarqatildi.

Fermer xo‘jaliklari va paxta to‘qimachilik klasterlarining vakillari uchun respublikaning barcha hududlarida majburiy mehnatni oldini olish, mavsumiy ishga jalb qilinadigan ishchilarni yollashda mehnat qonunchiligiga amal qilish mavzusida o‘quv seminarlar o‘tkazildi.



Fermer xo‘jaliklari va paxta to‘qimachilik klasterlarining vakillari uchun respublikaning barcha hududlarida majburiy mehnatni oldini olish, mavsumiy ishga jalb qilinadigan ishchilarni yollashda mehnat qonunchiligiga amal qilish mavzusida 30 mingdan ortiq targ‘ibot ishlari o‘tkazildi.



Shundan, klasterlar va fermer xo‘jaliklarida 25 505 ta, ta‘lim muassasalarida 1 341 ta, sog‘liqni saqlash tizimida 554 ta, mahallalarda 1 880 ta, boshqa tashkilotlar va aholi o‘rtasida 1 116 ta targ‘ibot ishlari o‘tkazildi. Mazkur tadbirlarda 700 mingdan ortiq fuqarolar qatnashdi.

Respublikamizning barcha hududlaridagi aholi gavjum joylarda majburiy mehnatning oldini olish borasida, 512 dan ortiq “Munosib mehnat – muhofaza qilingan va xavfsiz mehnat” va “Munosib mehnat – Inson qadrini ulug‘laydi” nomli bannerlar o‘rnatildi.

20 mingta flaerlar va bukletlar klaster va fermer xo‘jaliklari, mahalla fuqarolar yig‘inlari hamda ish beruvchilarga tarqatildi.

Paxta yig‘im-terimi mavsumi davomida majburiy mehnatning oldini olishga hamda paxta yig‘im-terimi ishlariga aholini erkin yollash, terimchilarga yaratilgan munosib mehnat sharoitlari haqida xabardorlikni oshirishga qaratilgan ijtimoiy roliklar tayyorlanib, barcha markaziy va hududiy hamda xususiy telekanallar orqali efirga uzatilishi yo‘lga qo‘yildi.